BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MA’NAVIY-AXLOQIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Ochilova Sabina Pirnazar qizi,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistranti

.

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi pedagogik omillar, ta’lim va tarbiya jarayonining o‘zaro uyg‘unligi hamda o‘quvchilarda ijobiy axloqiy xulq-atvorni shakllantirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarning mazmuni, tarkibiy komponentlari va ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar aniqlashtirilgan. O‘quvchilarda halollik, mas’uliyat, hurmat, mehr-oqibat, hamjihatlik, vatanparvarlik kabi ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim amaliyotida ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, ma’naviy-axloqiy kompetensiya, ma’naviy-axloqiy tarbiya, axloqiy sifatlar, pedagogik shart-sharoitlar, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, ta’lim va tarbiya, axloqiy xulq-atvor, pedagogik jarayon.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В статье представлен научно-теоретический анализ педагогических условий развития духовно-нравственных компетенций у учащихся начальных классов. Освещены педагогические факторы, влияющие на духовно-нравственное развитие учащихся на начальном этапе образования, взаимосвязь процессов обучения и воспитания, а также возможности формирования положительного нравственного поведения учащихся. Кроме того, уточнены содержание духовно-нравственных компетенций, их структурные компоненты и педагогические условия, способствующие их развитию. Особое внимание уделено педагогическим возможностям использования национальных и общечеловеческих ценностей в развитии у учащихся таких духовно-нравственных качеств, как честность, ответственность, уважение, доброжелательность, взаимопомощь и патриотизм. Результаты исследования могут способствовать повышению эффективности развития духовно-нравственных компетенций в практике начального образования.

Ключевые слова: начальное образование, учащиеся начальных классов, духовно-нравственная компетентность, духовно-нравственное воспитание, нравственные качества, педагогические условия, национальные ценности, общечеловеческие ценности, обучение и воспитание, нравственное поведение, педагогический процесс.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING SPIRITUAL AND MORAL COMPETENCIES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

This article provides a scientific and theoretical analysis of the pedagogical conditions for developing spiritual and moral competencies in primary school students. It highlights the pedagogical factors influencing the spiritual and moral development of students at the primary education stage, the harmony between the education and upbringing processes, and the possibilities for shaping positive moral behavior in students. Furthermore, the content and structural components of spiritual and moral competencies, along with the pedagogical conditions that facilitate their development, have been clarified. Particular attention is paid to the pedagogical possibilities of using national and universal values to foster spiritual and moral qualities such as honesty, responsibility, respect, kindness, solidarity, and patriotism in students. The results of the study may serve to enhance the effectiveness of developing spiritual and moral competencies in primary education practice.

Keywords: *Primary education, primary school students, spiritual and moral competence, spiritual and moral education, moral qualities, pedagogical conditions, national values, universal values, education and upbringing, moral behavior, pedagogical process.*

Kirish. Bugungi globallashuv, axborot oqimining jadallashuvi va ta’lim mazmunining modernizatsiyalashuvi sharoitida yosh avlodni har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan hamda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim davr bo‘lib, ushbu bosqichda uning atrofdagilarga munosabati, xulq-atvori, mas’uliyat hissi, halollik, hurmat, mehr-oqibat, hamkorlik va o‘z xatti-harakatlarini baholash kabi ma’naviy-axloqiy sifatlari shakllana boshlaydi.

Ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini faqat tarbiyaviy tadbirlar bilan cheklab qo‘yish kutilgan pedagogik natijani ta’minlamaydi. Tadqiqotlarda ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy-axloqiy tarbiyasida o‘qituvchining metodik mahorati, badiiy adabiyot, xalq og‘zaki ijodi, milliy qadriyatlar va amaliy faoliyatning ahamiyati ta’kidlangan.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim jihatlaridan biri o‘quvchining axloqiy me’yorlarni shunchaki bilishi emas, balki ularni kundalik faoliyatida namoyon eta olishidir. Shu bois o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat, hurmat, mehribonlik, hamjihatlik, vatanparvarlik kabi sifatlarni shakllantirish bilan bir qatorda, turli hayotiy vaziyatlarda axloqiy jihatdan maqbul qaror qabul qilish, o‘z xatti-harakatining natijasini anglash va boshqalarning huquq hamda manfaatlarini hisobga olish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimdirMazkur masalaning yana bir muhim jihati — o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy tarbiyani maqsadli va tizimli tashkil eta olish kompetensiyasidir.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy-axloqiy sifatlari, qadriyatlari, ijtimoiy kompetensiyalari, tarbiya darslarining imkoniyatlari hamda ayrim pedagogik shart-sharoitlar alohida yo‘nalishlarda yetarlicha o‘rganilgan. Biroq ma’naviy-axloqiy kompetensiyani yagona tizimli konstruksiya sifatida qarab, uning mazmuniy komponentlari, pedagogik shart-sharoitlari, samarali metodlari va rivojlanish mezonlarini o‘zaro bog‘lagan holda tadqiq etish masalasi yanada chuqurroq ilmiy asoslashni talab qiladi.

Shu sababli mazkur tadqiqotda ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini o‘quvchilarning qadriyatlarni anglash, axloqiy vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil axloqiy qaror qabul qilish, hamkorlik va muloqotga kirishish, o‘z xatti-harakatini refleksiv baholash hamda ijtimoiy mas’uliyatni namoyon etish ko‘rsatkichlari asosida tizimlashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Mazkur yondashuv tadqiqotning nazariy asosini amaliy-pedagogik mexanizmlar bilan bog‘lash imkonini beradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchisining yosh xususiyatlari, milliy qadriyatlar, interfaol ta’lim, refleksiya, ijtimoiy-emotsional rivojlanish va oila–maktab hamkorligini yagona pedagogik tizimga birlashtirish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Mazkur yondashuv tadqiqotning nazariy asosini amaliy-pedagogik mexanizmlar bilan bog‘lash imkonini beradi. Ma’naviy-axloqiy kompetensiyaning mazmuni.

Kompetensiya tushunchasi shaxsning muayyan faoliyatni samarali amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, munosabat va amaliy tajribalar majmuini anglatadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining ma’naviy-axloqiy kompetensiyasi esa quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

Axloqiy bilim – yaxshi va yomon xatti-harakatlarni farqlash.

Axloqiy munosabat – ota-ona, o‘qituvchi, tengdoshlar va boshqa insonlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish.

Axloqiy xulq-atvor – odob qoidalariga amal qilish.

Mas’uliyat – o‘z vazifalarini vaqtida bajarish va xatti-harakatining oqibatini tushunish.

Insonparvarlik – boshqalarga yordam berish va ularning holatini tushunishga harakat qilish.

Vatanparvarlik – Vatanga, ona tiliga, milliy qadriyatlarga hurmat.

Bag‘rikenglik – boshqa insonlarning fikri va xususiyatlarini hurmat qilish.

O‘zbek pedagogik tadqiqotlarida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishi, avvalo, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilish bilan bog‘lanadi. Jumladan, A. Avloniy tomonidan ilgari surilgan axloqiy tarbiya haqidagi pedagogik qarashlarda bolaning odobi, xulqi, insoniy fazilatlari va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirish ta’limning muhim vazifalaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu qarashlar zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda, axloqiy bilimlarning amaliy xulq-atvor va ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘lanishi zarurligini ko‘rsatadi.

So‘nggi tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishning pedagogik shartlari alohida ilmiy yo‘nalish sifatida o‘rganilmoqda. Xususan, A. Jo‘rayev tadqiqotida kichik maktab yoshidagi shaxsda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan hamda refleksiv yondashuvlarni uyg‘unlashtirish muhim pedagogik shartlar sifatida asoslangan. Ushbu yondashuv tadqiqotimiz uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ma’naviy-axloqiy kompetensiyani tayyor bilimlar majmui

emas, balki o‘quvchining faol faoliyati va shaxsiy tajribasi orqali tarkib topadigan kompleks sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. N. Hojiyevaning boshlang‘ich sinflarda “Tarbiya” darslari orqali ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishga bag‘ishlangan tadqiqotida axloqiy tarbiya bilan kommunikativ va ijtimoiy ko‘nikmalar o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rsatilgan. Muallif o‘quvchilarning muloqot qilishi, hamkorlikda ishlashi va o‘z fikrini ifodalashi kabi ko‘nikmalarni shakllantirishda tarbiya darslarining imkoniyatlarini ta’kidlaydi. Mazkur fikrlar ma’naviy-axloqiy kompetensiyaning tarkibida faqat “yaxshi xulq” emas, balki boshqa insonlar bilan konstruktiv munosabat o‘rnatish, hamkorlik qilish va ijtimoiy vaziyatlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish kabi kompetensiyaviy komponentlar ham mavjudligini ko‘rsatadi.

Z. Rahmonova va T. O. Buzrukov boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kompetensiyalarini shakllantirishda tashkiliy-pedagogik shartlarning ahamiyatini tahlil qilib, ta’lim jarayonining mazmuni, metodlari va tashkil etish shakllari o‘quvchi kompetensiyalarining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini asoslaydi. Ushbu ilmiy yondashuv ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ham alohida pedagogik shart-sharoitlar tizimini ishlab chiqish zarurligini anglatadi.

Xalqaro tadqiqotlarda ham ma’naviy-axloqiy rivojlanish masalasi ijtimoiy-emotsional ta’lim bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilmoqda. UNESCO tomonidan 2024-yilda e’lon qilingan materiallarda ijtimoiy-emotsional ta’lim o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish, boshqalarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ijobiy munosabatlar o‘rnatish, mas’uliyatli qarorlar qabul qilish hamda murakkab vaziyatlarni samarali hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks jarayon sifatida izohlanadi. Ushbu qarashlar ma’naviy-axloqiy kompetensiyaning kognitiv, hissiy, ijtimoiy va xulqiy komponentlarini birgalikda rivojlantirish zarurligini ko‘rsatad**i.**

Tadqiqot tahlili va natijasi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining nazariy va pedagogik tahlili ushbu kompetensiyaning bir nechta o‘zaro bog‘langan tarkibiy qismlardan tashkil topishini ko‘rsatdi. Mazkur tarkibiy qismlar o‘quvchining axloqiy tushunchalarni bilishi, qadriyatlarga ongli munosabat bildirishi, muayyan vaziyatda maqbul xulq usulini tanlashi hamda o‘z harakatlarini baholay olishini qamrab oladi. Shu sababli ma’naviy-axloqiy kompetensiyani faqat bilim yoki xulq-atvor ko‘rsatkichi orqali baholash yetarli emas. Uning shakllanish darajasini aniqlashda kognitiv, qadriyatli-motivatsion, faoliyatli-xulqiy va refleksiv komponentlarning yaxlitligi hisobga olinishi lozim. Kognitiv komponent o‘quvchilarning yaxshilik va yomonlik, halollik, adolat, mas’uliyat, vatanparvarlik, mehr-oqibat, bag‘rikenglik hamda o‘zaro hurmat haqidagi tasavvurlarini ifodalaydi. Ushbu komponent doirasida o‘quvchi axloqiy tushunchalarning mazmunini bilishi, ijobiy va salbiy xatti-harakatlarni bir-biridan ajrata olishi hamda sodir bo‘lgan vaziyatning axloqiy mohiyatini tushuntirishi talab etiladi. Biroq axloqiy me’yorlarni bilish ularni amaliy xulqda namoyon etish bilan doimo ham bir xil darajada rivojlanmaydi. O‘quvchi halollik yoki mas’uliyatning mazmunini to‘g‘ri izohlashi mumkin, ammo murakkab vaziyatda ushbu me’yorlarga muvofiq qaror qabul qilishda qiynalishi ehtimoli mavjud.

Demak, nazariy bilim amaliy faoliyat va shaxsiy tajriba bilan mustahkamlangan taqdirdagina kompetensiyaga aylanadi. Qadriyatli-motivatsion komponent o‘quvchining ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shaxsiy ahamiyatga ega mezon sifatida qabul qilishi bilan tavsiflanadi. Bunda o‘quvchining yaxshi xulq-atvorni faqat kattalarning talabini bajarish yoki rag‘bat olish uchun emas, balki uning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini tushungan holda namoyon etishi muhimdir

Faoliyatli-xulqiy komponent ma’naviy-axloqiy bilim va munosabatlarning real xatti-harakatlarda namoyon bo‘lishini anglatadi. Mazkur komponent o‘quvchining jamoada ishlashi, tengdoshlariga yordam berishi, umumiy qoidalarga rioya qilishi, topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashishi, nizoli vaziyatlarda o‘zini boshqarishi va boshqalarning huquqlarini hurmat qilishi orqali kuzatiladi. Bu jihatdan hamkorlikdagi topshiriqlar, rolli o‘yinlar, ijtimoiy loyihalar, o‘zaro yordamga asoslangan mashqlar va real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish katta pedagogik imkoniyatga ega.

Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarda refleksiv ko‘nikmalar hali to‘liq shakllanmaganligi sababli o‘qituvchi tomonidan yo‘naltiruvchi savollar, o‘zini baholash varaqalari, “Men bugun nimani o‘rgandim?”, “Mening harakatim boshqalarga qanday ta’sir qildi?”, “Bu vaziyatda yana qanday yo‘l tutish mumkin edi?” kabi mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Refleksiya o‘quvchiga o‘z xulqini tashqi bahoga qaram holda emas, ma’naviy-axloqiy mezonlar asosida nazorat qilishga bosqichma-bosqich o‘tish imkonini beradi.O‘rganilgan ilmiy yondashuvlar va pedagogik kuzatuv mezonlarini umumlashtirish asosida ma’naviy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirishga ta’sir qiluvchi bir qator pedagogik shart-sharoitlar belgilandi.

Birinchi shart — ta’lim mazmunini milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishdir. Bunda qadriyatlar alohida mavzu sifatida emas, ona tili, o‘qish savodxonligi, tarbiya, tabiatshunoslik, musiqa va tasviriy san’at kabi fanlarning mazmuniga singdirilgan holda yoritilishi kerak. Masalan, badiiy matn qahramonlarining xatti-harakatlarini baholash, tabiatga ehtiyotkor munosabatni muhokama qilish yoki

jamoaviy ijodiy topshiriqlarni bajarish orqali ma’naviy-axloqiy tushunchalarning amaliy mazmuni ochib beriladi.

Ikkinchi pedagogik shart — o‘quvchini axloqiy tanlovni talab qiladigan faol vaziyatlarga jalb etishdir. Oddiy nasihat va tayyor qoidalarni yod oldirish o‘quvchining xulqiy tajribasini yetarli darajada rivojlantirmaydi. Muammoli vaziyatlar, axloqiy dilemmalar, rolli o‘yinlar va kichik guruhlardagi munozaralar esa o‘quvchini qaror qabul qilish, uning sabablarini tushuntirish va mumkin bo‘lgan oqibatlarni oldindan baholashga undaydi. Bunday topshiriqlarda yagona tayyor javobni talab qilishdan ko‘ra, o‘quvchining fikrlash jarayoni va axloqiy asoslash qobiliyatiga e’tibor qaratish samaraliroq hisoblanadi.

Uchinchi shart — sinfda ijobiy ma’naviy-psixologik muhitni yaratishdir. Agar dars jarayonida o‘quvchilarning fikri tinglanmasa, xatolari keskin tanqid qilinsa yoki ular o‘zaro taqqoslansa, axloqiy qadriyatlar nazariy talab sifatida qabul qilinishi mumkin. O‘qituvchining bolaga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, adolatli baholashi, o‘zaro yordamni rag‘batlantirishi hamda nizolarni muloqot orqali hal qilishi o‘quvchilar uchun amaliy axloqiy namuna vazifasini bajaradi.


To‘rtinchi shart — o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos metodlardan foydalanishdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mavhum axloqiy tushunchalarga qaraganda obrazli misollar, hayotiy voqealar, ertaklar, hikoyalar va faol o‘yinlar orqali berilgan mazmunni yaxshiroq o‘zlashtiradilar.

Beshinchi shart — maktab, oila va mahalla hamkorligining izchilligini ta’minlashdir. O‘quvchiga maktabda tushuntiriladigan axloqiy talablar oiladagi munosabatlar va mahalladagi ijtimoiy muhit bilan uyg‘unlashganida barqaror xulqiy odatlar shakllanadi. Agar turli tarbiya subyektlarining talablari o‘zaro zid bo‘lsa, bola ma’naviy mezonlarni vaziyatga qarab qo‘llashi yoki ularni faqat rasmiy talab sifatida qabul qilishi mumkin.

Oltinchi shart — Ta’lim jarayonida muntazam refleksiya va pedagogik monitoringni yo‘lga qo‘yishdir. Ma’naviy-axloqiy kompetensiyadagi o‘zgarishlarni faqat yozma test orqali aniqlash to‘liq natija bermaydi. Chunki o‘quvchining javobi bilan kundalik xulqi o‘rtasida farq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun diagnostikada kuzatuv, vaziyatli topshiriq, suhbat, o‘zini o‘zi baholash, tengdoshlar bahosi va o‘qituvchi tavsifini o‘zaro uyg‘unlashtirish zarur. Bunda baholash jazolash yoki o‘quvchilarni bir-biri bilan solishtirish vositasi emas, balki ularning rivojlanish dinamikasini aniqlash vositasi bo‘lishi lozim.

Tajriba-sinov davomida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy kompetensiyalaridagi o‘zgarishlar, avvalo, ularning xulq-atvori va muloqot madaniyatida namoyon bo‘ldi. Jumladan, o‘quvchilarda kattalarga hurmat, tengdoshlariga nisbatan mehribonlik, o‘zaro yordam, jamoada ishlash, topshiriqlarni mas’uliyat bilan bajarish, o‘z xatti-harakatini baholash va xatolarini tan olish kabi sifatlarning rivojlanganligi kuzatildi. Muammoli vaziyatlardan foydalanish o‘quvchilarga tayyor axloqiy qoidalarni yodlashdan ko‘ra, muayyan vaziyatni tahlil qilish, turli xatti-harakatlarni taqqoslash va mustaqil xulosa chiqarish imkonini berdi.Shuningdek, ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda o‘qituvchining shaxsiy namunasi muhim omil ekanligi aniqlandi..

Shunday qilib, olingan natijalar ishlab chiqilgan pedagogik shart-sharoitlar majmuasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda ijobiy pedagogik samaraga ega ekanligini ko‘rsatadi.Tadqiqot tahlil va natiajalrni quyidagi **1-rasm** asosida har bir bo’limlarda yoritilishini guvohi bo’lamiz.



1-rasm. Tajriba guruhida ma’naviy-axloqiy kompetensiyalar ko‘rsatkichlarining diagrammasi



2-rasm.Tadqiqot natijalari va tahlilining eng asosiy natijalari foiz ko‘rinishida ifodalangan

Xulosa va tavsiyalar. Tajriba-sinov natijalari ishlab chiqilgan pedagogik shart-sharoitlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, ta’lim jarayoniga ma’naviy-axloqiy mazmundagi topshiriqlarni tizimli integratsiya qilish, interfaol metodlardan foydalanish, muammoli vaziyatlarni tashkil etish va refleksiv faoliyatni yo‘lga qo‘yish o‘quvchilarning kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qildi. Shunday qilib, olingan natijalar ishlab chiqilgan pedagogik shart-sharoitlar majmuasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda ijobiy pedagogik samaraga ega ekanligini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
2. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b.
3. Hakimova N.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari // International Journal of Scientific Researchers. – 2023. – Vol. 2, № 2. – B. 1–6.
4. Qurbonova B.Q., Madaminova S.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy-ma’naviy qadriyatlarini shakllantirish // Iqro jurnali. – 2025. – № 9. – B. 80–84.
5. Akaboyeva M. Hadislar yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2026.
6. UNESCO. What you need to know about social and emotional learning [Elektron resurs]. – Paris: UNESCO, 2024. – URL: UNESCO rasmiy sayti.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi. – Toshkent, 2021.